PEDAGOGIK TADQIQOTLAR JURNALI
ISSN: 3060-4923 Impact Factor –7,212

TERMIN VA ODDIY SO‘Z O‘RTASIDAGI FARQLAR: LINGVISTIK TAHLIL

Xamidjonova Dilnura Muhiddinjon qizi
Andijon davlat chet tillari instituti stajor tadqiqotchisi
tel: +998902002398
g.mail: xamidjonovadilnura@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada termin va oddiy so‘z o‘rtasidagi farqlar lingvistik jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida terminlarning asosiy xususiyatlari, ularning semantik va struktur belgilariga e’tibor qaratildi. Shuningdek, termin va umumiste’mol so‘zlarning o‘zaro farqli jihatlari misollar asosida ochib berildi.

Kalit so‘zlar: termin, terminologiya, oddiy so‘z, semantika, strukturalash, lingvistik tahlil

РАЗЛИЧИЯ МЕЖДУ ТЕРМИНОМ И ОБЩЕУПОТРЕБИТЕЛЬНЫМ СЛОВОМ: ЛИНГВИСТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ

Аннотация: В данной статье рассматриваются различия между термином и общеупотребительным словом с лингвистической точки зрения. В ходе исследования особое внимание уделено основным характеристикам терминов, их семантическим и структурным признакам. Также различия между терминами и общеязыковыми словами раскрываются на основе примеров.

Ключевые слова: термин, терминология, общеупотребительное слово, семантика, структура, лингвистический анализ

DIFFERENCES BETWEEN TERMS AND COMMON WORDS: A LINGUISTIC ANALYSIS

Abstract: This article analyzes the differences between terms and common words from a linguistic perspective. The study focuses on the main characteristics of terms, including their semantic and structural features. Additionally, the distinctions between terms and commonly used words are illustrated through examples.

Keywords: term, terminology, common word, semantics, structure, linguistic analysis

Kirish

Zamonaviy tilshunoslikda terminologiya masalalari alohida ilmiy yo‘nalish sifatida shakllanib, turli fan va sohalarning rivojlanishi bilan chambarchas bog‘liq holda taraqqiy etib bormoqda. Har bir ilmiy sohaning o‘ziga xos terminologik tizimi mavjud bo‘lib, bu tizim orqali muayyan tushunchalar aniq va ixcham tarzda ifodalanadi [1]. Shu jihatdan, terminlar ilmiy nutqning asosiy komponenti sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Oddiy so‘zlar esa tilning umumiste’mol qatlamini tashkil etib, kundalik kommunikatsiya jarayonida keng qo‘llaniladi. Ular turli kontekstlarda turlicha ma’no kasb etishi, emotsional-ekspressiv rang-baranglikka ega bo‘lishi bilan ajralib turadi [3] Terminlar esa, aksincha, maksimal darajada aniqlik va barqarorlikka intiladi [5].

Bugungi kunda globallashuv jarayonlari natijasida fanlararo integratsiya kuchayib, yangi tushunchalar va atamalar paydo bo‘lmoqda. Bu esa terminologik tizimlarning kengayishiga va boyishiga olib kelmoqda [2]. Shu bilan birga, ayrim oddiy so‘zlarning termin sifatida qo‘llanilishi yoki terminlarning umumxalq tiliga o‘tishi kabi jarayonlar ham kuzatilmoqda. Bu holat termin va oddiy so‘z o‘rtasidagi chegaraning nisbatan harakatchan ekanligini ko‘rsatadi. Mazkur tadqiqotning dolzarbligi termin va oddiy so‘z o‘rtasidagi farqlarni aniqlash orqali ilmiy nutqning o‘ziga xos

xususiyatlarini ochib berish bilan belgilanadi. Shuningdek, bu masala tarjimashunoslik, leksikologiya va terminologiya uchun ham muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega [4].

Mazkur maqolaning maqsadi termin va oddiy so‘z o‘rtasidagi lingvistik farqlarni aniqlash hamda ularning semantik, struktur va funksional xususiyatlarini tahlil qilishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

termin tushunchasini aniqlash;

oddiy so‘zlarning lingvistik xususiyatlarini yoritish;

termin va oddiy so‘z o‘rtasidagi asosiy farqlarni tahlil qilish;

ularning til tizimidagi o‘rnini aniqlash.

Terminologiya nazariyasi ko‘plab olimlar tomonidan o‘rganilgan bo‘lib, terminlarning lingvistik tabiati, ularning tizimliligi va funksional xususiyatlari alohida tadqiq etilgan. Xususan, J.C. Sager terminologiyani tizimli birlik sifatida ko‘rib, terminlarning standartlashuvi va ularning ilmiy kommunikatsiyadagi rolini ta’kidlaydi [1]. M.T. Kabré terminologiyani mustaqil ilmiy yo‘nalish sifatida asoslab, terminlarning lingvistik, kognitiv va kommunikativ jihatlarini kompleks tarzda yoritadi [2.]. D. Kristal esa terminlarning til tizimidagi o‘rniga e’tibor qaratib, ularning semantik aniqligi va bir ma’nolilik xususiyatlarini muhim deb hisoblaydi [3].

Terminologiya nazariyasining rivojlanishida A.A. Reformatskiy alohida o‘rin tutadi. U terminni aniq tushunchani ifodalovchi maxsus til birligi sifatida ta’riflaydi hamda uni umumiste’mol so‘zlardan farqlovchi asosiy belgilarni ko‘rsatib beradi [5].

Shuningdek, tarjimashunoslikda terminlarning ekvivalentligi masalasi muhim o‘rin egallaydi. E. Nida terminlarning boshqa tilga o‘girilishida semantik moslik va adekvatlikni ta’minlash zarurligini ta’kidlaydi [4]. O‘zbek tilshunosligida ham terminologiya masalalari muhim tadqiqot obyekti hisoblanadi. Sh. Rahmatullaev, A. Hojiev va A. Madvaliev terminlarning leksik-semantik va tizimli xususiyatlarini o‘rganib, ularning milliy til tizimidagi o‘rnini yoritib bergan.

Termin tushunchasi va uning xususiyatlari

Termin - bu muayyan fan yoki faoliyat sohasiga oid tushunchani aniq ifodalovchi maxsus til birligi hisoblanadi [5]. Terminlar umumiste’mol so‘zlardan farqli ravishda ma’no aniqligi va barqarorligi bilan ajralib turadi. Ular muayyan ilmiy tizim ichida qo‘llanilib, o‘zaro bog‘langan holda terminologik tizimni tashkil etadi [1].

Terminlarning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

Birinchidan, terminlar aniqlik xususiyatiga ega. Ya’ni, ular bir tushunchani ifodalaydi va ortiqcha semantik kenglikka ega emas [3]. Ikkinchidan, terminlar bir ma’nolilik (monosemiya) bilan xarakterlanadi. Oddiy so‘zlardan farqli ravishda terminlar ko‘p ma’nolilikka ega bo‘lmasligi kerak [2]. Uchinchidan, terminlar tizimlilik xususiyatiga ega. Har bir termin muayyan terminologik tizim ichida o‘z o‘rniga ega bo‘lib, boshqa terminlar bilan semantik aloqada bo‘ladi [1]. To‘rtinchidan, terminlar stilistik neytrallikka ega bo‘ladi. Ular emotsional yoki ekspressiv rangga ega emas, balki ilmiy aniqlikni ta’minlashga xizmat qiladi [5]. Shuningdek, terminlar ilmiy nutqda qo‘llanilib, bilimlarni tizimli ravishda ifodalash imkonini beradi. Shu sababli terminologiya fan taraqqiyoti bilan chambarchas bog‘liq holda rivojlanadi.

Oddiy so‘zlarning lingvistik xususiyatlari

Oddiy so‘zlar tilning umumiste’mol qatlamini tashkil etadi va kundalik nutqda keng qo‘llaniladi. Ular terminlardan farqli ravishda ko‘p ma’nolilik va kontekstga bog‘liqlik bilan ajralib

turadi [3]. Oddiy so‘zlarning muhim xususiyatlaridan biri — bu polisemiya, ya’ni bir so‘zning bir nechta ma’noga ega bo‘lishidir. Masalan, “bosh” so‘zi inson a’zosi, rahbar yoki biror narsaning boshlanishini anglatishi mumkin. Bu esa oddiy so‘zlarning semantik kengligini ko‘rsatadi. Bundan tashqari, oddiy so‘zlar kontekstga bog‘liq holda ma’no kasb etadi. Ya’ni, ularning aniq ma’nosi nutq vaziyatiga qarab o‘zgarishi mumkin [3]. Terminlarda esa bunday o‘zgaruvchanlik deyarli kuzatilmaydi. Oddiy so‘zlar yana emotsional-ekspressiv xususiyatga ega bo‘lishi mumkin. Ular nutqda obrazlilik, ta’sirchanlik va subyektiv munosabatni ifodalashga xizmat qiladi. Terminlar esa bunday xususiyatlardan xoli bo‘ladi [2]. Shuningdek, oddiy so‘zlar tilning ochiq tizimiga mansub bo‘lib, ular tez o‘zgaradi va yangi ma’nolar kasb etadi. Terminlar esa, aksincha, barqarorlikka intiladi va standartlashuvga bo‘ysunadi.

Termin va oddiy so‘zlarning asosiy farqlari

Termin va oddiy so‘zlar til tizimining turli qatlamlariga mansub bo‘lib, ularning lingvistik xususiyatlari sezilarli darajada farqlanadi. Ushbu farqlar, avvalo, semantik, funksional va struktur jihatlarda namoyon bo‘ladi. Birinchidan, semantik jihatdan terminlar aniq va chegaralangan ma’noga ega bo‘ladi. Ular muayyan tushunchani ifodalab, ortiqcha ma’no kengligiga ega emas. Oddiy so‘zlar esa ko‘p ma’nolilik xususiyati bilan ajralib turadi. Masalan, bir so‘z turli kontekstlarda turlicha ma’no anglatishi mumkin, bu esa ularning semantik maydonining kengligini ko‘rsatadi. Funksional jihatdan terminlar ilmiy nutqda qo‘llaniladi va aniq tushunchalarni ifodalashga xizmat qiladi. Ular ilmiy kommunikatsiyada aniqlik va tushunarlilikni ta’minlaydi [1]. Oddiy so‘zlar esa kundalik nutqda ishlatilib, kommunikativ ehtiyojlarni qondirishga xizmat qiladi. Struktur jihatdan terminlar ko‘pincha maxsus yasalish modellari asosida shakllanadi. Ular kompozitsiya, affiksatsiya yoki sintaktik birikmalar orqali hosil qilinadi. Oddiy so‘zlar esa tilning umumiy leksik tizimi doirasida shakllanib, ularning yasalishida qat’iy cheklovlar kuzatilmaydi [6]. Stilistik jihatdan esa terminlar neytral xarakterga ega bo‘lib, ular emotsional yoki ekspressiv bo‘yoqqa ega emas. Oddiy so‘zlar esa aksincha, turli stilistik ranglarga ega bo‘lishi mumkin [2].

Termin va oddiy so‘zlar o‘rtasidagi farqlarga qaramay, ular o‘zaro uzviy bog‘liq hisoblanadi. Ba’zi hollarda oddiy so‘zlar termin sifatida qo‘llanilishi mumkin. Bu jarayon terminologiyada terminologizatsiya deb ataladi. Masalan, “maydon”, “tizim”, “model” kabi so‘zlar dastlab umumiste’mol so‘zlar bo‘lgan bo‘lsa, keyinchalik turli ilmiy sohalarda termin sifatida qo‘llanila boshlagan. Bu esa oddiy so‘zlarning terminlarga aylanish jarayonini ko‘rsatadi [2]. Aksincha, ayrim terminlar vaqt o‘tishi bilan umumxalq tiliga o‘tib, oddiy so‘zga aylanishi mumkin. Bu jarayon esa determinologizatsiya deb ataladi. Bunday holat, ayniqsa, ilmiy-texnik taraqqiyot natijasida keng tarqalgan terminlarda kuzatiladi. Termin va oddiy so‘zlar o‘rtasidagi farqlarni yanada aniqroq ko‘rsatish uchun ularni konkret misollar asosida tahlil qilish maqsadga muvofiqdir. Amaliy tahlil shuni ko‘rsatadiki, bir xil shakldagi til birliklari turli kontekstlarda turlicha funksiyani bajarishi mumkin. Masalan, “maydon” so‘zini olaylik. Oddiy nutqda bu so‘z “ochiq joy” yoki “hudud” ma’nosini anglatadi. Biroq fizika fanida “maydon” termini maxsus ilmiy tushunchani - ya’ni kuchlar ta’siri mavjud bo‘lgan fazoni ifodalaydi. Bu yerda oddiy so‘z termin sifatiga ega bo‘lib, uning ma’nosi aniq va chegaralangan holga keladi. Bu jarayon terminologiyada terminologizatsiya sifatida talqin etiladi [1].

Yana bir misol sifatida “model” so‘zini ko‘rib chiqish mumkin. Kundalik nutqda bu so‘z kiyim namunasini yoki tashqi ko‘rinishni anglatishi mumkin. Ilmiy nutqda esa “model” murakkab tizim yoki jarayonning soddalashtirilgan ko‘rinishini bildiruvchi termin sifatida qo‘llaniladi. Demak, bir xil shakldagi birlik turli nutq qatlamlarida turlicha ma’noga ega bo‘lishi mumkin.

“Sistema” yoki “tizim” so‘zi ham shunday xususiyatga ega. Oddiy nutqda u umumiy tartib yoki bog‘liqlikni bildiradi, ilmiy nutqda esa u o‘zaro aloqador elementlar majmuini ifodalovchi aniq termin sifatida ishlatiladi. Bundan tashqari, ingliz tilida ham shunga o‘xshash holatlar kuzatiladi. Masalan, “field” so‘zi oddiy nutqda “dala” yoki “maydon” ma’nosini bildiradi, ilmiy termin sifatida

esa fizika yoki matematika sohasida maxsus tushunchani anglatadi. Bu esa termin va oddiy so‘z o‘rtasidagi chegaraning nisbiy ekanligini ko‘rsatadi.

Shuningdek, ayrim terminlar vaqt o‘tishi bilan oddiy so‘zga aylanishi mumkin. Masalan, “telefon”, “internet”, “kompyuter” kabi so‘zlar dastlab ilmiy-texnik termin sifatida qo‘llanilgan bo‘lsa, bugungi kunda ular umumxalq tiliga kirib, oddiy so‘z sifatida keng qo‘llanilmoqda. Bu jarayon determinologizatsiya deb ataladi. Yana bir muhim jihat - terminlarning sinonimiyasi masalasidir. Oddiy so‘zlarda sinonimlar keng tarqalgan bo‘lsa, terminologiyada bu holat cheklangan. Masalan, oddiy nutqda “katta” so‘ziga “ulug‘”, “buyuk”, “yirik” kabi sinonimlar mavjud. Terminlarda esa bitta tushuncha uchun bitta nom qo‘llanishi maqsadga muvofiq hisoblanadi. Qiyosiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, terminlar va oddiy so‘zlar o‘rtasidagi farqlar nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham muhimdir. Bu farqlarni to‘g‘ri anglash ilmiy nutqni aniq va samarali tashkil etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Natijalar va muhokama

Olib borilgan tahlillar natijasida termin va oddiy so‘zlar til tizimining turli funksional qatlamlariga mansub ekanligi aniqlandi. Terminlar ilmiy nutqning ajralmas qismi sifatida aniq va tizimli ma’no ifodalashga xizmat qilsa, oddiy so‘zlar kundalik kommunikatsiya ehtiyojlarini qondirishga yo‘naltirilgan. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, terminlar semantik jihatdan tor va chegaralangan ma’noga ega bo‘lib, ular muayyan tushunchani ifodalaydi va ko‘p ma’nolilikka yo‘l qo‘ymaydi [5]. Oddiy so‘zlar esa aksincha, keng semantik maydonga ega bo‘lib, turli kontekstlarda turlicha ma’no anglatishi mumkin [3].

Tadqiqot natijalari termin va oddiy so‘zlar o‘rtasidagi chegaraning mutlaq emasligini ham ko‘rsatdi. Ayrim hollarda oddiy so‘zlar termin sifatida qo‘llanilishi yoki terminlarning umumxalq tiliga o‘tishi kuzatiladi. Bu esa til tizimining dinamik xususiyatga ega ekanligini bildiradi. Natijada terminlarning aniqligi va barqarorligi ilmiy kommunikatsiya samaradorligini ta’minlashda muhim omil hisoblanadi. Shu bois terminlarni standartlashtirish va ularning yagona tizimini yaratish dolzarb masalalardan biri bo‘lib qolmoqda

Xulosa

Mazkur tadqiqot natijasida termin va oddiy so‘z o‘rtasidagi asosiy lingvistik farqlar aniqlab berildi. Terminlar muayyan soha doirasida aniq tushunchani ifodalovchi, ma’nosi chegaralangan va tizimli birlik sifatida namoyon bo‘lsa, oddiy so‘zlar umumiste’mol xarakterga ega bo‘lib, ko‘p ma’nolilik va kontekstga bog‘liqlik bilan ajralib turadi. Terminlar ilmiy nutqning aniqligini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Ular orqali bilimlar tizimli ravishda ifodalanadi va ilmiy kommunikatsiya samaradorligi oshadi. Oddiy so‘zlar esa tilning kommunikativ imkoniyatlarini kengaytirib, nutqqa erkinlik va ifoda boyligini olib kiradi. Shuningdek, termin va oddiy so‘zlar o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlik ham muhim ahamiyat kasb etadi. Terminologizatsiya va determinologizatsiya jarayonlari til tizimining dinamik rivojlanishini ko‘rsatadi. Bu esa tilning doimiy ravishda yangilanib borishini va yangi tushunchalarni ifodalashga moslashuvchanligini namoyon etadi. Kelgusida ushbu yo‘nalishda yanada chuqurroq tadqiqotlar olib borish, xususan, turli sohalar terminologiyasini qiyosiy tahlil qilish hamda ularning tarjima muammolarini o‘rganish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Cabré M.T. Terminology: Theory, Methods and Applications. – Amsterdam: John Benjamins, 1999.
2. Crystal D. A Dictionary of Linguistics and Phonetics. – Oxford: Blackwell, 2008.
3. Nida E.A. Toward a Science of Translating. – Leiden: Brill, 1964.
4. Reformatskiy A.A. Vvedenie v yazykovedenie. – M.: Aspekt Press, 2005.

5. Sager J.C. A Practical Course in Terminology Processing. – Amsterdam: John Benjamins, 1990.
6. Vinokur G.O. O nekotoryx yavleniyax slovoobrazovaniya v russkoy texnicheskoy terminologii. – M., 1994.